



## THE PLACE OF THE GREAT FERGANA CANAL IN THE SOCIAL AND ECONOMIC LIFE OF THE POPULATION OF OUR COUNTRY

*Muzaffar Tursunov*

lecturer

School 33, Andijan district, Andijan region

Andijan, Uzbekistan

E-mail: [muzaffartusunov@gmail.com](mailto:muzaffartusunov@gmail.com)

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Big Fergana Canal, irrigation system, Usman Yusupov, canals, Central Asia, Soviet rule, Stalin, Central Asia, Karadarya, Norin, social-economic relations, farmers, hydrotechnical facility, So'x river, Uchkurgan, Kuyganyor, Khojand, Qairaqum, water consumption, Tyan-Shan.

**Abstract:** This article provides detailed information about the role of the Great Fergana Canal in the social and economic life of the population of our country, how the population can easily use it for farming and other areas. Also, the history of the construction of the Great Fergana Canal and the sources of saturation of the canal will be discussed.

**Received:** 29.10.24

**Accepted:** 31.10.24

**Published:** 02.11.24

## KATTA FARG'ONA KANALINING MAMLAKATIMIZ AHOLISINING IJTIMOIIY – IQTISODIY HAYOTIDAGI TUTGAN O'RNI

*Muzaffar Tursunov*

o'qituvchi

Andijon viloyati Andijon tumani 33-maktab

Andijon, O'zbekiston

E-mail: [muzaffartusunov@gmail.com](mailto:muzaffartusunov@gmail.com)

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Katta Farg'ona kanali, sug'orish tizimi, Usmon Yusupov, kanallar, O'rta Osiyo, sovet hukmronligi, Stalin, Markaziy Osiyo, Qoradaryo, Norin, ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar, dehqonlar, gidrotexnika inshooti, So'x daryosi, Uchqo'rg'on, Kuyganyor, Xo'jand, Qayroqqum, suv sarfi, Tyan – Shan.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Katta Farg'ona kanalining mamlakatimiz aholisining ijtimoiy – iqtisodiy hayotidagi tutgan o'рни, aholisining dehqobchilik qilishi va boshqa sohalarida qanday qilib qulay foydalana olishi tog'risida batafsil ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, Katta Farg'ona kanali qurilishi tarixi va kanalning to'yinish manbalari haqida so'z yuritiladi.

## МЕСТО БОЛЬШОГО ФЕРГАНСКОГО КАНАЛА В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ НАШЕЙ СТРАНЫ

*Музаффар Турсунов*

*преподаватель*

*Школа 33, Андижанский район, Андижанская область*

*Андижан, Узбекистан*

*E-mail: [muzaffartusunov@gmail.com](mailto:muzaffartusunov@gmail.com)*

---

### О СТАТЬЕ

---

<b>Ключевые слова:</b> Большой Ферганский канал, оросительная система, Усман Юсупов, каналы, Средняя Азия, Советская власть, Сталин, Средняя Азия, Карадарья, Норин, социально-экономические отношения, земледельцы, гидротехническое сооружение, река Сох, Учкурган, Куйганёр, Ходжанд, Кайраккум, водопотребление, Тянь-Шань.	<b>Аннотация:</b> В данной статье представлена подробная информация о роли Большого Ферганского канала в социально-экономической жизни населения нашей страны, о том, как население может легко использовать его для ведения сельского хозяйства и других сфер. Также будет обсуждаться история строительства Большого Ферганского канала и источники насыщения канала.
---	---

---

### KIRISH

Betakror tabiatga ega bo'lgan jannatmakon o'lkamiz ichki suvlariga daryolar, ko'llar, Yer osti suvlari, muzliklardagi suvlar, suv omborlari, kanal va anhorlardagi suvlar kiradi. Ichki suvlar faqat mamlakatimiz iqlim xususiyatlariga emas, balki uning tabiatining boshqa unsurlariga, xususan uning relyefiga ham bog'liqdir. Relyef ichki suvlarga, shu jumladan oqim hosil bo'lish jarayoniga, bevosita tabiiy geografik omillar, ayniqsa iqlimiy omillar orqali ta'sir etadi. Chunki, tog' yonbag'irlarining tik bo'lganligi sababli yoqqan yomg'ir, erigan qor va muzliklarning suvlari tezda pastga oqib tushib, soy va daryolarni hosil qiladi. Bundan tashqari tog'larning mutlaq balandliklarning ortib borishi natijasida yog'inlarning ko'p tushishi va havo haroratining pastligi tufayli qalin qor qoplami hosil bo'ladi hamda muzliklarni to'yintirib turadi, natijada daryolar doimiy to'yinish manb'asiga ega bo'ladi. Qor va muzlarning erishi natijasida yer osti suvlarning hosil bo'lishiga va daryolarni to'yintirib turishiga qulay sharoit yaratib beradi.

Aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ro'l o'ynagan mamlakatimizdagi suv inshootlaridan biri Katta Farg'ona kanali hisoblanadi. Ushbu kanalning suvi bugungi kunda O'zbekistonning uchta viloyatidagi yerlarni sug'orish uchun foydalaniladi. Bular, "Andijon viloyatida 66.6 ming ga. Namangan viloyatida 12 ming ga. Farg'ona viloyatida 125 ming ga., Qirg'izistonning O'sh viloyatida (0,76 ming ga.) va Tojikistonning Sug'd viloyatida (10 ming ga.) yerlarni sug'orishda foydalaniladi. Kanalga 1966-yilda kanal qurilishi tasahhbuskorlaridan biri bo'lgan davlat arbobi Usmon Yusupov nomi berilgan". Mazkur kanalning qurilishi tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak juda ajoyib ma'lumotlarga ko'zimiz tushadi. O'rta Osiyoda sovetlar hukmronligi o'rnatilishidan oldin ko'p asrlar mobaynida O'rta Osiyodagi suv resurslari boy

mulkdorlarga tegishli bo'lib, ular bu yerda yashovchi dehqonlarning turnush sharoitini og'ir qilib qo'ygan, aholi tashnalik, ochlik va qashshoqlikda yashadi va bu omillar ko'pchilikni bu hududdan qochishiga sabab bo'ldi. Inqilob Markaziy Osiyo va mintaqadagi barcha fuqarolar uchun ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tubdan isloh qilish imkonini berdi.

“1939-yil 17-sentabrda “Pravda Vostoka” O'rta Osiyoning Katta Farg'ona kanali qurilishi orqali suv olish orzusi ro'yobga chiqishini e'lon qildi. O'zbekiston Kompartiyasi O'rta Osiyo Qo'mitasining birinchi kotibi Usmon Yusupov sovet qishloqlarida ichimlik suvi manbai bo'lgan “hovuz” bo'lmaydi, buning o'rniga mintaqani gullab –yashnatadigan samaraliroq drenaj kanallari bo'lishini e'lon qildi. Sovet hukumati transport infratuzilmasini kengaytirish va mintaqaga sarmoya kiritgan o'zbek sovet fuqarolari bir paytlar qurib qolgan Rossiya mustamlakasining sovet hayotining markazi bo'lib xizmat qiladigan jonli gullaydigan vodiya aylantirdi. Kanal Ittifoq taraqqiyotining ramzi bo'lib, Sovet Ittifoqining mintaqaning kelajakdagi gullab – yashnashidan dalolat beradi, shuningdek, Stalin davlatning Markaziy Osiyo fuqarolariga zamonaviy davr va sotsializmga bo'lgan g'amxo'rliqi va yo'l – yo'riqlarining namunasi bo'ldi”.

#### **MATERIALLAR VA USULLAR**

**Usmon Yusupov nomidagi Katta Farg'ona kanali** – Farg'ona vodiysida qurilgan eng yirik gidrotexnika inshootlaridan biri. Kanal O'zbekistonda 283 km, Tojikistonda 62 km, Qirg'izistonda 13 km hududlardan oqib o'tadi. O'zanining asosiy uzunligi 358 km ga teng bo'lib, qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish davrida Norin daryosidan 420 m<sup>3</sup>/sekund, Qoradaryodan 100 m<sup>3</sup>/sekund, So'x daryosidan 12 m<sup>3</sup>/sekund, jami daryolardan 532 m<sup>3</sup>/sekund suv oladi. Kanal trassasi 2 traktdan iborat. Yuqori Norin trakti 44 km uzunlikda Uchqo'rg'on shahri yaqinidan boshlanib Kuyganyorgacha yetib boradi. Quyi Qoradaryo trakti 314 km Qoradaryoga qurilgan Kuyganyor to'g'onidan boshlanib Sirdaryo bilan deyarli yonma-yon holda janubda Tojikiston Respublikasi Xo'jand shahri yaqinigacha Qayroqqum suv omboridan quyiroqda davom etgan.

Kanal qurilishi 1939 yili avgust oyida boshlanib, xalq hashari yo'li bilan juda qisqa muddatda 45 kunda, qurib bitkazilgan. Kanal qurilishida 160 ming nafar kishi ishtirok etgan bo'lib, kanal o'zanidan 17,8 mln m<sup>3</sup> tuproq qazib chiqarilgan. Shundan 1,7 mln m<sup>3</sup> tuproq mexanizmlar yordamida chiqarilgan. O'zanning og'ir uchastkalarida 14 ta ekskavator, 245 ta traktor, 420 avtomashinalardan foydalanilgan. O'zan qirg'oqlarining xavfli joylarini mustahkamlash maqsadida 42,2 ming m<sup>3</sup> beton sarflangan. O'sha davrda o'zanda 45 ta yirik va 275 ta kichik gidrotexnika inshootlari qurilgan. Kanal O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari hududidagi 500 ming gektar sug'oriladigan yerlarning sug'orish imkoniyatlarini tubdan yaxshilab, Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani YangiYer qishloq fuqarolar yig'ini hududida Norin daryosidan suv oladi. Norin daryosi asosan Qirg'iziston Respublikasi hududida Tyan-Shan tog' sistemasidagi Norin-Too tog' tizmalarining shimoli-sharqida Ak-Shiyrak, Enilchek tog'laridan

Norin va Kichik Norin daryolarining qo'shilishidan hosil bo'ladi, u asosan muzlik va qor suvlaridan to'yinadi. Norin daryosiga Kichik Norin, Jook-Tosh, Son-Ko'l, Ko'k-Meron, Ot-Boshi, Ola Buqa daryolari ham o'z suvlarini quyadi. Norin daryosi Farg'ona tog' tizmasining shimoliy qismida To'xtag'ul suv omboriga o'z suvini quyib uni janubida yana o'z o'zanini davom ettirib Namangan viloyati hududidan o'tib Andijon viloyatining Baliqchi tumanida Chumchuqyor qishlog'ida Qoradaryo bilan birlashib Sirdaryoni hosil qiladi.

Katta Farg'ona kanali 1939 yili 45 kunda qo'l mehnati bilan hashar yo'lida qazib bitkazilgan bo'lib, Farg'ona vodiysidagi eng muhim suv arteriyalaridan biri hisoblanadi. Kanal Norin-Qoradaryo havzasiga kiradi va ikkinchi darajali suv inshooti hisoblanadi. Uning asosiy o'zani uzunligi 358 km ga teng. Kanal O'zbekiston Respublikasining Namangan, Andijon va Farg'ona viloyatlari hududlaridan oqib o'tadi hamda Farg'ona viloyati Beshariq tumanining Qamishboshi qishlog'i atrofida O'zbekiston hududidan butunlay chiqib, Tojikiston Respublikasining Xo'jand viloyati Konibodom shahrining shimolidagi Qayroqqum suv omboriga quyiladi. Kanal yuqori qismida Izboskan tumani Chuvama qishlog'ida Qoradaryoga qo'shilib Kuyganyor gidrouzelida yana daryodan ajrab chiqadi. Katta Farg'ona kanali Andijon viloyatining Izboskan, Andijon, Oltinko'l, Shahrixon tumanlari hududidan oqib o'tadi, kanalning eng ko'p suv sarfi sekundiga 180 m<sup>3</sup>, me'yoriy sarfi 165 m<sup>3</sup>, eng oz sarfi 8,0 m<sup>3</sup> ni tashkil etadi, kanalning 24,53 km masofasi betonlashtirilgan. Kanalning suvi Yetib borib, sug'orish imkoni bo'lgan maydon 197257 gektarni tashkil qiladi, kanalning bosh loyihachisi "Sazvodproiz" instituti hisoblanib, bosh pudratchi xalq qurilishi bo'lgan, kanal 1953 va 1970 yillarda (rekonstruksiya) qayta ta'mirlangan.

### NATIJARLAR

Katta Farg'ona kanali qurilishi natijasida Farg'ona vodiysida aholining suvga bo'lgan ehtiyoji ma'lum darajada yaxshilandi. Ushbu kanal magistral kanallar tizimi bosh boshqarmasi tasarrufida bo'lib, uni nazorat qiladi va foydalanadi. Kanal o'zani bo'ylab 250,4 km masofada inspektorlik yo'li qurilgan bo'lib, uning 215,6 km masofasi asfaltlangan. Bu yo'ldan kanalni to'la nazorat qilish ishlarida foydalaniladi, undan tashqari kanal havzasini boshqarish to'la avtomatlashtirilgan bo'lib, aloqa vositalari bilan ta'minlangan. Kanalning joylashgan o'rni O'zbekiston Respublikasining Namangan, Andijon, Farg'ona viloyatlari hududida bo'lsa, Tojikiston Respublikasining Xo'jand viloyati hududiga to'g'ri keladi. Ya'ni kanal Farg'ona vodiysining sharqidan boshlanib g'arbida tugaydi.

Katta Farg'ona kanalining qo'shimcha suv manbai birinchi darajali Norin daryosi hisoblanib, Namangan viloyati Uchqo'rg'on shahrining janubi- g'arbida Norin daryosidan suv olib, 13 km masofada oqib suvining asosiy qismini Katta Andijon kanaliga beradi, ma'lum qismi Katta Farg'ona kanaliga qo'shimcha suv manbai sifatida qo'shiladi. Qo'shimcha to'yinish manbai hisoblangan bu kanal birinchi darajali hisoblanib eng ko'p suv sarfi sekundiga 330 m<sup>3</sup> ga teng,

me'yoriy suv sarfi sekundi  $310 \text{ m}^3$ , eng oz sarfi esa  $8,0 \text{ m}^3$  ni tashkil etadi, ushbu kanal o'zani to'laligicha beton qoplamasi bilan qoplangan. Kanal suvi yetib borib sug'orish imkoni bo'lgan maydon 168844 ming gektarni tashkil etadi. Kanalning bosh loyihachisi "Uzgirovodxoz" instituti, bosh pudratchisi esa "Uzglavodstroy" tresti hisoblanadi. Kanal, asosan, 1958-1959 yillarda qurilgan va 1970 yilda qayta ta'mirlangan bo'lib, juda katta iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga kasb etadi. Kanal Sirdaryo suv havzasi bosh boshqarmasi tasarrufiga qaraydi. Kanal qirg'og'i 13 km li xizmat yo'li bilan ta'minlangan bo'lib, yo'lning hamma qismi qattiq qoplama bilan qoplangan. Yo'l kanal faoliyatini nazorat qilish va boshqarishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Kanal o'zani bo'ylab bir qancha inshootlar qurilgan. Jumladan, Katta Farg'ona kanalida 3 ta bosh yo'naltiruvchi, 10 ta himoya to'sish qurilma inshootlari, 422 ta suv o'tkazgich, 104 ta avtomobil ko'priklari, 7 ta temiryo'l ko'priklari, 2 ta kanal osti suv o'tkazish dyukerlari, 53 ta akveduk, 5 ta tabiiy ofat (suv toshqini) sodir bo'lish xavfi bo'lganda foydalaniladigan tashlama, 6 ta tez oqimga ega bo'lgan shovva, qo'shimcha to'yinish manbai hisoblangan 13 km lik kanalda esa 1 ta bosh yo'naltiruvchi inshoot, 3 ta himoya to'sish qurilma inshootlari, 5 ta suv o'tkazgich, 5 ta avtomobil ko'priklari, 1 ta temiryo'l ko'prigi, 1 ta kanal osti suv o'tkazuvchi dyuker suv va injenerlik inshootlari mavjud bo'lib, bular kanallarni muntazam ravishda nazorat qilish, boshqarish, taqsimlash, xavfsizligini ta'minlash ishlarida hamda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Katta Farg'ona kanalining suvi nafaqat qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish uchun, balki jamiyning boshqa sohasini ham rivojlantirishga, jumladan: sanoat, transport, aholining suvga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga hamda vodiyni iqlim xususiyatini yaxshilashga xizmat qiladi. Kanal 358 km masofani bosib o'tish orqali yuzlab aholi manzilgohlaridan oralab oqadi, bu shu aholi manzilgohlarining obod va ko'rkam bo'lishida, aholining madaniy dam olishlari uchun rekratsion resurs sifatida ham xizmat qiladi.

## **XULOSA**

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, XX asrning 30-yillaridan boshlab Farg'ona vodiysida mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish negizida sug'orma dehqobchilikni, birinchi o'rinda paxtachilikni rivojlantirish maqsadida yirik magistral kanallar, suv omborlari va boshqa gidrotexnik barpo etishga e'tibor berilgan. Suv xo'jaligini samarali faoliyatini ta'minlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmalarini barpo qilish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Moddiy – texnik bazani mustahkamlash sohasidagi amaliy tadbirlar yirik zamonaviy qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi – suv xo'jaligini shakllanishiga olib keldi. Ana shunday maqsadlarni amalga oshirishni nazarda tutgan holda Katta Farg'ona kanali qurilishiga alohida e'tibor berildi. Mazkur kanal qurilgandan so'ng Farg'ona vodiysida suv bilan bo'ladigan turli xil muammolar ma'lum darajada bartaraf etildi. Hozirgu kunda Katta Farg'ona

kanali Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida yerlarni sug‘orishda muhim ahamiyatga ega kanallardan biri hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Z. Artukmetov. O‘zme. Birinchi jild. Toshkent. 2000-yil
2. Stronski, Paul. Tashkent. Forging a Soviet City, 1930-1966. University of Pittsburgh Pre, 2010.
3. Baratov P. X., Mamatkulov M. M., Rafikov A. A. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi. Toshkent. 2002. -336 b.
4. Ботиров Р. С., Яковлев А.В. Мониторинг горных ледников Гиссаро-Алая с использованием космических снимков ASTERTERRA//Тр. НИГМИ.-2004.-выпск 3(248).-С. 22-27.
5. Груза Г.В., Ранькова Э.Я. Обнаружение изменений климата: состояние, изменчивость и экстремальность климата// Метеорология и. гидрология.- № 4.- 2004.- С. 50-66.
6. Ильин И.А Водные ресурсы Ферганской долины. Л.-Гидрометеоздат. 1959.
7. KamolovB., XalilovJ. O‘zbekistondagidrologiya.-Andijon. 2000.-25 b.
8. Никулина С.Н. Влияние изменения климата на аридность территории Узбекистана // Тр. НИГМИ. -2000. – в.1(146). – 81-85.
9. Ососкова Т.А., Спекторман Т.Ю., Чуб В.Е. Иклим ўзгариши. – Тошкент. ЎзГИМЕТ.- 2006.-54 с.
10. Rasulov A. R., Hikmatov. Umumiy gidrologiya // -Toshkent. –Universitet. – 2003. 327 b.
11. Rasulov A. R., Hikmatov, AytboyevD.P. Gidrologiya asoslari. – Toshkent. Universitet. – 1995. -175 b.
12. Soliyev E.A. Shimoliy Farg‘ona daryolari suv resurslarini baholash //Nam.DU ilmiy axboroti. № 2.-2005. 34-37 b.
13. Фатхуллаева З.Н., Юлдашева С.Х. Климатические колебания осадков в Узбекистане//Тр. НИГМИ.-в. 7(252). – 2006. –с.115-122.
14. Халилов Ж., Камолов Б. Фарғона водийсининг дарёлари. – Андижон, 1999. -33 б.
15. Чуб В.Е. Изменение климата и его влияние на природно-ресурсный потенциал Республики Узбекистан. – Ташкент: САНИГМИ, 2000. -252 с.